

21-mart - Navro'z umumxalq bayrami!



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092



Ildizlarni qitiqlab, kurtaklarni kuldirar Navro'z,
G'unchalarni uyg'otib, gul-chechakka to'ldirar Navro'z!

NABIRALARIMGA MAKTUB...

Omonulla MADAYEV,
folklorshunos olim:

– Bolalarim, baribir sizga havasim kelaveradi. Chunki siz yashayotgan mahalla, o'qiyotgan maktab mening bolaligim kechgan maskanlardan ming chandon go'zalroq, tengsiz! Sizning davringizda hatto bahorlar ham o'zgacha. Kuy-qo'shiqlar-u sumalaklarga boy Navro'z o'zgacha! Axir, Mustaqillik bolalariga havas qilmay bo'ladimi?! Istiqlol bergan bu in'omni qadrlamoq, dorilamon kunlar shukronasini ko'ngilga jo etmoq siz, azizlar zimmangizdagi yuksak mas'uliyatdir.



Sh. MAXMADIYEV olgan suratlar,
S. FARMONOV chizgan rasm

Uyg'onish ayyomi bo'lgan Navro'z eshik qoqmoqda. Yoshlik va go'zallik, nafosat bayrami, yaxshilik va ezgulik elchisi bo'lgan bu shodiyonani biz hamisha intiqlik bilan kutamiz. Chunki Navro'z biz uchun hayot abadiyligi, tabiatning cheksiz saxovati, urf-odatlarimiz-u betakror qadriyatlarimiz ifodasi bo'lib kelmoqda.

ORZULAR KURTAK OCHGANDA...

Yurtimizga 2015-yilning bahori o'zgacha tantana bilan kirib keldi. 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar bayrami arafasida O'zbekiston xalq shoiri Zulfiya tavalludining 100 yilligi keng nishonlandi.

Raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, keyingi uch yil mobaynida mamlakatimizdagi ta'lim muassasalari o'quvchilari jahon miqosida o'tkazilgan nufuzli fan olimpiadalarida g'olib bo'lib, jami 110 ta medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, ularning 44 tasi qizlarimiz hissasiga to'g'ri keladi. Yoki san'at va musiqa sohasida dunyoning Parij, Rim, Berlin, Tokio, Moskva, Praga, Qohira, Seul, Dehli kabi yirik madaniyat markazlarida bo'lib o'tgan xalqaro ko'rik-tanlovlarda 530 dan ziyod o'quvchi va talabalarimiz g'oliblikka erishgani va ularning 240 nafarga yaqini qiz bolalar ekanini mamnuniyat bilan ta'kidlash o'rini. Keyingi uch yilda sportchi



qizlarimizning 620 nafarga yaqini xalqaro musobaqalarda zafar qozongani hammamizni quvontirdi.

Kuni kecha Zulfiya nomidagi Davlat mukofotining ushbu yildagi sovrindorlari e'lon qilindi. Ular

orasida sizning tengdoshlaringiz Buxoro shahridagi 39-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Sitorabonu Ismatova, Yunusobod tumanidagi 260-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

Charosxon Maratova, Xorazm viloyati, Gurlan tumanidagi 5-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Shirin Rahimovaning ham borligi quvonarlidir.

– Men jannatmakon diyorning baxtiyor qizi ekanimdan faxrlanaman Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti boshqa tengdoshlarim qatori menga ham yuksak mas'uliyat yuklaydi. Bunday e'tibor va g'amxo'rlik uchun davlatimizdan minnatdorman, – deydi xorazmlik tengdoshingiz Shirin Rahimova.

Aytishlaricha, Navro'z kelishi bilan inson umidlari ham kurtak ocharkan. Biz bu yilgi sovrindorlarni yuksak mukofot bilan muborakbod etar ekanimiz, serquyosh yurtimizdagi barcha qizlarimizga qarata, orzu-umidlaringiz ijobat bo'lsin, deymiz.

Feruza SOYIBJON qizi

MEHRIM SIZGA, AZIZ ONAJON!

Yaqinda poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 300-IDUMda «Ayol borki, olam munavvar» nomli tadbir bo'lib o'tdi.

Nodira Jamoliddinova rahbarligidagi boshlang'ich sinfning jaiji o'quvchilari kechaga yig'ilgan onalar va qadrlil ustozlarni ayollar bayrami bilan muborakbod etarkan, turli sahna ko'rinishlari, she'riy

chiqishlar va qo'shiqlari bilan barchani xushnud etdi. Onalarcha mehr-u muhabbat, kuyunchaklik va farzandlar iqboli orzusi zo'r ishtiyoq bilan bolalar tiliida tarannum etilgan ushbu samimiy chiqishlar mehmonlarning hech birini bee'tibor qoldirmadi. Ayniqsa, ko'zi

o'jiz farzandi uchun o'z ko'zlaridan voz kechgan ona haqidagi sahna ko'rinishi barchani to'lqinlantirib yubordi. Onaizor mehridan shifo topgan farzand rolini o'ynagan 4-«G» sinf o'quvchisi Shuhrat Abdufayzovning «Sizga tiyrak nigohlar ila qarayatgan ushbu ko'zlar aslida onamniki, onajonimning ko'zlari...», deya onasini sahnadan yetaklab olib chiqib ketishi, ayniqsa, ta'sirli chiqdi.

Tadbir yakunida bolalar onaxon va ustozlarga o'z qo'llari bilan yasagan sovg'alarni taqdim etishdi.

Alisher VAFO

BOYCHECHAGIM BOYLANDI, QOZON TO'LA AYRONDI...

Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabidagi navbatdagi tadbir xalq og'zaki ijodi durdonalaridan bo'lgan ushbu satrlar bilan boshlandi.

Maskandagi 2-«E» sinfi o'quvchilari tomonidan tayyorlangan «Har kuning – Navro'z o'lsin» bayram tantanasiga ustozlar, ota-onalar hamda maktabga qo'shni mahallalar nuroniy keksalari taklif qilindi. O'quvchilardan Mubina Abdurahmonova, Robiya Abdullaxo'jayeva, Zulfiya Sayfullayeva, Samira Abdullayeva hamda Malika Zaynuddinova «Bahor», «Lola», «Boychechagim» she'rlaridan yod oldilar.

«Qarisi bor uy...» mavzusidagi sahna ko'rinishi bayram ishtirokchilariga ajoyib tuhfa bo'ldi. Bunda Aziza Yo'ldosheva, Abdulloh Ahrolo'jayev, Rahimjon Bahodirov, Xosiyatxon Tohirova, Saidkamol Saidrahimov, Abdulboriy Farhodovlar o'z aktyorlik mahoratlarini namoyish etishdi. Quvonarlisi, kecha mehmonlaridan «Navro'z» mahallasidan Xolida Husanova, Nodira Isamuhammedova, «Guliston» mahallasidan Mahmuda To'raqulova va oqtepalik Donoxon aya Qurbonovalar o'quvchilarga Navro'z tarixi, bayram taomlarini tayyorlash xususida qiziqarli ma'lumotlar berishdi. Tadbir davomida qizlar o'zlari tayyorlagan «Ochil dasturxon» taomlarini sharhlab, tayyorlanish usullari haqida tushuntirishdi.

Kexsa momolarimizdan tashkil topgan hay'at a'zolari qizlar mahoratini baholashdi.

Sinf rahbari Munira Shermonova boshchiligidagi tashkillashtirilgan mazkur tadbir yosh avlod va xonadonlarimiz fayzi – keksalarimiz o'rtasidagi rishtaning mustahkamlash omili bo'lishi shubhasiz.

Nurbek QIDIRALIYEV

«MUSTAQILLIK MADHI - BOLALAR IJODIDA»

RESPUBLIKA IJODIY ISHLAR TANLOVIGA

Vatan! Uni har kim o'zicha talqin qiladi, madhini o'z sozi, ovozi bilan kuylaydi. Bu muqaddas so'zning ma'no-mazmunini chin dildan his etish baxti faqatgina qalbi toza, beg'ubor, buyuk maqsadlar bilan yashaydigan insonlargagina nasib etadi.

Sevimli shoirimiz Muhammad Yusufning quyidagi misralarini o'qib, bu fikrning nechog'li to'g'riligiga yana bir bor amin bo'lamiz:

Vatan bu tan ichindadir,
Vatan – nomus, Vatan or.
Vatan singlim kabi pokdir,
Vatan xalqdek xokisor.



Darhaqiqat, borlig'imiz, orzu-istaklarimiz, ezgu-amallarimiz mehvaridir Vatan! Har bir erishgan yutug'imizda, maqsad yo'lida zabt etgan dovonimizda uning mehrini, taftini his qilamiz, qalbimizda shu yurt taqdiriga daxldorlik hissi oshadi.

Bir donishmanddan, bu yorug' olamda eng kuchli muhabbat kimga yoxud nimaga bo'lmog'i lozim, deb so'rashganda, u hech ikkilanmasdan, Vatanga, chunki Vatanni sevgan insongina, ota-onasini, yor-u birodarlarini qadrlay oladi, deya javob bergan ekan.

qo'shig'idek yuragimizga oqib kiradi. Ko'z o'ngimizda ajib manzaralari, kengliklari namoyon bo'lgani sayin ko'ngillarimiz ham kengayib boraveradi. Nurli kelajagi tasavvurimizda jonlansa, qalbimiz nurlanadi. Bilgan, eshitgan ta'riflarimizdan ko'nglimiz to'lmay, ta'rifiga yana so'z axtaramiz.

Respublika bolalar kutubxonasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamda «Tong yulduzi» bolalar va o'smirlar gazetasi hamkorligida o'tkazilayotgan «Mustaqillik madhi – bolalar ijodida» Respublika ijodiy ishlar tanloviga shu kungacha juda ko'plab ijodiy ishlar kelib tushdi. Ularning aksariyat qismini tashkil qilayotgan she'riy mashqlarni ko'zdan kechirar ekanimiz, o'quvchilar ijodida Vatan mavzusi yetakchilik qilayotganini kuzatamiz. Yosh qalamkashlarning ona yurtga hali hech kim bermagan, aytmagan yangi ta'rif, tashbeh izlashga, murg'ak qalblariga



Istiqlol baxsh etayotgan g'urur, iftixor tuyg'ularini o'z ijod

namunalarida aks ettirishga bo'lgan urinishlari ko'ngilda umid uyg'otadi.

Quyida tengdoshlaringizning tanlovga yo'llagan she'riy mashqlaridan namunalar o'qiydiz.

F. ABDUSAMAD qizi

TINCHLIK QO'SHIG'I

Baland tog'lar ortidan,
Uyg'onar zarrin quyosh.
Mening murg'ak qalbimiga,
Umid qo'yar asta bosh.

Gul-chechaklar yuz ochib,
Jilmayadi quyoshga.
Iliq nurlari birdek,
Yoqadi keksa-yoshga.

Kapalaklar gullarni,
Mehri bilan quchishar.
Qaldirg'ochlar charx urib,
Osmon uzra uchishar.

Ona yurtimga tinchlik,
Tilar jajji yuragim.
Shu qadrlil Vatanga,
Bo'lsin doim keragim.

Sarvinoz TO'LIYEVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Beruniy tumanidagi
54-umumta'lim maktabining
8-sinf o'quvchisi

Chindan ham, yaqinlarimizga bo'lgan mehr-u muhabbatimiz ildizlari shu yurtning tuprog'idan kuch oladi, buloqlaridan suv ichadi. Vatan so'zini tilga olsak, uning aks-sadosi ezgulik

VATANIM

Vatanim, sen chamanimsan,
Bir g'unchangman men sening.
Yiroqlasam senda bo'lar,
Mudom xayolim mening.

Sen g'ururim, iftixorim,
Sensan shodlik, quvonchim.
Sening bilan bag'rim butun,
O'zing tog'dek suyanchim.

Mehrga kon quchog'ingda,
Ulg'aydim, topdim kamol.
Niyatim shu, aziz yurtim
Aslo ko'rmagin zavol!

Davron JABBOROV (9-sinf)

Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumanidagi
7-umumta'lim maktabining o'quvchilari



YURTIMGAGA

Gul bahorim, yurtimga
Tog'-u toshdan oshib kel.
Jambil, rayhon hidini,
Bog'imizga sochib kel.

Dov-daraxtlar gul ochib,
Yurtim chaman, bog' bo'lsin.
Ko'rki, jamolin ko'rib,
Murg'ak qalbim tog' bo'lsin!

Aziza MAMAZOITOVA (8-sinf)

BUVIJONIM

Onam ishga ketganda, Buvim meni chorlaydi,
Buvim bilan qolaman. Turli xil to'garakka.
Uning har bir so'zini, Hunarlar turin aytib,
Tinglab saboq olaman. O't soladi yurakka.

So'zlari to'la ma'no, Baxtimizni o'ylagan,
O'zimning buvijonim, Mehribonim – buvijon.
Doim u bilan bo'lsam, Eng asosiy tilagim,
Zavqli o'tar har onim, Joningiz bo'lsin omon.

E'zoza MUHAMMEDOVA,
poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi
193-umumta'lim maktabining
7-«D» sinf o'quvchisi

Balki qachondir sizda ham shunday bo'lgandir. Safarga chiqqan kishi gohida ilk bor ko'rib turgan manzarasidan hayratga tushib, dunyolarga sig'may ketadi. Samarqand viloyatiga safarimiz chog'i bizda ham shunday bo'ldi.

Safardan maqsadimiz eng chekka hududlarda bo'lib, u yerdagi maktab o'quvchilari hayoti bilan yaqindan tanishish edi. Viloyat markazidan ancha olisda bo'lgan Qo'shrabot tumani bizni bepoyon kengliklari-yu, behisob qir-adirlari bilan maftun etdi.

Qo'shrabotga bahor ertaroq kelarkan.

Qir-adirlar o't-o'lanlarga burkanib, z u m r a d poyandozday tovlanadi. Chaqmoqday chaqnaq turgan otlarni jilovlab, yeldirib ketayotgan abjir bolalarga havas bilan tikilamiz.

– Hamma bayram taraddudida, – deydi hamrohim – tumandagi 18-umumta'lim maktabi o'qituvchisi Ahmadjon Barnayev. – Navro'z kuni bu yerlar saylga chiqqanlar bilan yanada fayzli bo'ladi. Turli sport musobaqalari, xalq o'yinlari o'ynaladi.

Keyingi manzilizim tumandagi 32-umumta'lim maktabi bo'ldi. U yerda ham o'quvchilar bilan ijodiy uchrashuvlar o'tkazdik. Kengliklarda ulg'ayayotgan tengdoshlaringizning ulkan

orzulari bilan tanishib, ko'nglimiz zavqqa to'ldi. Navro'z zavqi bilan yashayotgan bolajonlar bilan uzoq gurunlashdik...

Qaraganing sari ko'nging yashnaydigan adirlar osha yana safarimizni davom ettirdik. Tog'lar bag'rida joylashgan Urgut tumanida ham Navro'z shukuhi o'zgacha. Yaqin kunlarda bo'lib o'tadigan xalq sayliga qizg'in hozirlik ko'rilmogda.

Purviqor tog'lar, daralarga qarab o'zingni ertaklar olamiga tushib qolganday his qilasan, kishi. Safar davomida ko'plab umumta'lim maktablarida bo'ldik. Gazetamiz bilan doimiy hamkorlikda bo'lgan urgutlik o'quvchilar bilan muloqotimiz nihoyatda maroqli kechdi. Tumandagi 35-umumta'lim maktabining 4-«A» sinfiga kirganimizda, o'quvchilar hisob ilmi bilan shug'ullanayotgan ekan. Ular bilan



gazetamiz xususida fikr almashib, taklif-mulohazalarini yozib oldik.

Ayniqsa, ularning badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishlari barchamizni quvontirdi. Mazkur sinfda yaxshi bir an'ana yo'lga qo'yilgan ekan.

O'quvchilar o'qigan ertak va hikoyalarni sinfdoshlariga so'zlab

berish asnosida sinf doskasida mazkur asarning mazmuniga mos rasm ham chizisharkan. Ozodbek Xudoyqulov, Jonibek Asmatov, Quvonchbek Nuriddinov, «Susambil» ertagini ana shunday tarzda aytib berishganida, o'zimizni beg'ubor bolalik olamiga sayohat qilgandek his qildik. Bepoyon kengliklardagi Qo'shrabot va purviqor tog'lar bag'ridagi Urgutga qilgan safarimizdan olam-olam zavq oldik.

Yusuf ABDULLAYEV,
Samarqand – Toshkent

AYYOM MUBORAK!

Men sevimli gazetam «Tong yulduzi»ning har bir sonini muntazam kuzatib boraman. Sahifalarda yoritilayotgan tengdoshlarimning ijod namunalarini o'qib, juda sevinaman, o'zimning ham qalbimda she'riyat uchqunlari paydo bo'ladi.

Kundan kun chiroy ochib borayotgan qishlog'imiz tabiatini she'riy misralarda ta'riflagim, kuyga solib qo'shiq aytgim keladi.

Fursatdan foydalanib, barcha tengdoshlarim, ustoz-u muallimlarim, qishloqdoshlarimni go'zallik va bahor bayrami — Navro'z bilan chin qalbimdan tabriklayman.

Sojida SHERNAYEVA,

Qashqadaryo viloyati, Nishon tumanidagi

11-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi

NIYOZBOSHLIKLAR TUHFASI

Men Niyozbosh qishlog'ida yashayman. Qishlog'imiz bahor kelishi bilan yanada gullab yashnaydi.

Maktabimizda 1241 nafar o'quvchi bilim oladi. Biz juda chiroyli, shinam, yorug' xonalarda dars o'rganamiz. Bundan tashqari, maskanda katta sport zali bo'lib, unda Mirzamo'min Alimboyev, Abduxalil O'taboyev kabi ustozlar bizga mashg'ulotlar o'tkazishadi. Yaqinda ularning shogirdlaridan 6-sinf o'quvchisi Jasurbek Jabbarov qo'l jangi bo'yicha O'zbekiston chempioni bo'ldi. 7-sinf o'quvchisi Javohir Abdurahmonov kikkboxing bo'yicha viloyatda uchinchi o'rinni egalladi. Mini futbol bo'yicha qizlar jamoasi esa tumanda hamisha peshqadamlar safida.

Bu kabi yutuqlar Navro'z bayramiga munosib tuhfa bo'ldi, desam aslo mublag'a bo'lmaydi. Shuningdek, maktabimizda taniqli yozuvchi va shoirlar, o'z kasbining ustasi bo'lgan insonlar bilan bayram uchrashuvlarini o'tkazaypmiz. Bunday tadbirlar bizga olam-olam zavq bermoqda. Maskandagi har bir kunimiz mazmunli o'tayotgani bois, uni juda yaxshi ko'raman.

Gulnoza ERKINOVA,

Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi 27-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi

MAKTABDA NAVRO'Z TANTANALARI

Yaqinda poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 162-umumta'lim maktabida go'zallik, nafosat, sadoqat ramzi «Onajonlar bayrami» hamda yasharish, yangilanish pallasi — «Navro'zi olam» bayram tadbirlari bo'lib o'tdi.



SULTONOV, Olga, surat

Mazkur tantanada maskanning 3-«A» sinf o'quvchilari ustozlari Nodira Ne'matullayeva rahbarligida mehriyaro onalar, buvijonlarni, mehribon murabbiy-ustozlarni muborakbod etib, she'rlar-u qo'shiqlar, teatrlashtirilgan sahna ko'rinishi-yu ajoyib raqslari bilan yig'ilganlarni xushnud etishdi. Ayniqsa, Rahima Mahmudova, Otajon Sattorov, Umid Zokirjonov, Kamola Ermatova, Sabrina Yaxshiyeva hamda Parvina Dadayeva ijro etgan rollar barcha onajonlarni to'lqinlantirib yubordi.

Navro'z kunlarida zamin-u samoda ajib mo'jizalar sodir bo'lishi Muhammadyusuf Ismoilov, Yusufjon Davronov, Umid Toshpo'latov, Ne'matullo Hamidullayev va Shomurod Shoazimovlar tomonidan she'r ijrosi-yu sahna ko'rinishida o'zgacha ko'rinishda namoyish etildi.

Bayramga Qoraqalpog'iston Respublikasidan tashrif buyurgan muallima Guljahon Xo'jamberganova o'quvchilarning ma'naviy dunyosi ularning har bir chiqishida aks etganini hayratlanib so'zlab berdi.

Nurbek NURALI o'g'li

QIZLAR BELLASHUVI

Poytaxtimizning Bektemir tumanidagi 289-umumta'lim maktabida bahoriy tantana — Navro'z munosabati bilan tadbir tashkil etildi.


Asosiy qismi o'quvchilarning badiiy chiqishlari bilan boyitilgan anjumanga uyg'un holda iqtidorli o'quvchi qizlarning tadbirlar zaliga kiraverishda namoyish etgan «Mohir qo'llar» ko'rgazmasi, ayniqsa, mehmonlar e'tirofiga sazovor bo'ldi. Nozik did bilan yaratilgan san'at asarlari: qo'lida to'qilgan qo'lqopcha-yu qalpoqchalar, qog'oz va kartondan tayyorlangan buyumlarni ko'pchilik havas bilan tomosha qildi. Bolalarcha beg'uborlik aks etgan ertaklar olami va hayot chizgilari hech bir kishi e'tiboridan chetda qolmadi. Bu o'rinda Sabina Akiyeva, Gulchehra Aminjonova, Fotima Ishaqova, Sora Azizova kabi iqtidorli qizlarning ijod namunalari alohida tahsinga loyiq.

Alisher FAYZULLAYEV



— Assalomu alaykum, aziz bolajonlarim! Sevimli nashringiz «Tong yulduzi» gazetasi o'quvchilariga eng qadimiy, milliy bayramimiz bo'lgan Navro'z ayyomi arafasida qalbimdagi samimiy tilaklarimni bildirish imkoni berilganidan boshim osmonga yetdi, — deydi filologiya fanlari nomzodi Omonulla Madayev.

NABIRALARIMGA MAKTUB...



— Ma'lumki, Prezidentimiz tashabbusi bilan yurtimizda ushbu bayramni keng nishonlash an'anaga aylanganiga 25 yil to'ldi. Tabiat bilan birga ruhan poklanish, kishilar o'rtasida mehr-muruvvat, do'stlik, ahillik, birdamlikni mustahkamlash, turli millatlar o'rtasida hamjihatlik, totuvlikni rivojlantirish hamda tabiatni asrab-avaylash, obodonlashtirish, keksalar holidan xabar olish kabi umuminsoniy qadriyatlar omili bo'lgan bu kunda yurtdoshlarimiz Navro'zga atab o'zlarining ezgu niyatlarini amalga oshirishga hozirlanadilar.

Rostini aytsam, kuni kecha men ham sizlarga o'xshab ona tilidan mashqlarni bir chiziqli daftarga ezilib ko'chirishdan, matematikadan berilgan tenglamalarni mukka tushib yechishdan, kimyodan Mendeleyev jadvalidagi solishtirma og'irliklarni yodlashdan erinib yurgan edim. Bundan ko'ra to'p tepish, quvlashmchoq o'ynash, varrak uchirish, kaparlarning vug'ur-vug'urini tomosha qilish qiziqarliroq edi-da. Ammo onam — Aziza Isomiddin qizining tadbirkorlik bilan bergan tarbiyasi bois, avval Quddus Muhammadiy, Po'lat Mo'minning she'rlarini, keyinroq Fenimor Kuper, Daniel Defo, yana keyinroq Oybek, Abdulla Qahhor asarlarini o'qib, hayotga tayyorlandim.

Azizlarim, siz tinchlik hukmron mamlakatning baxtiyor bolalarisiz. Tengdoshlaringiz jahon miqyosidagi fanlar olimpiadalari, sport musobaqalari, musiqa ko'rik-tanlovlarida ishtirok etmoqda va O'zbekiston bayrog'ining ko'kda hilpirashiga, madhiyamizning jahon bo'ylab jaranglashiga hissa qo'shmoqdalar. Bugun siz «Kamalak yulduzlari», Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti, «Nihol» kabi ko'plab tanlovlar ishtirokchisiz. Biz esa ko'kragingizdagi nishonlarni ko'rib, siz bilan faxrlanamiz, sizga havas qilamiz.

Qadrlil o'quvchilar, faqatgina maktab darsligini o'zlashtirgan kishi kitobxon bo'lib qolmaydi. Badiiy asarlar mutolaasi, go'zal she'rlarni yod olishga sizda xohish bilan birga hafsala bo'lishi lozim. Qanchalik ko'p o'qiganingiz sari ko'zingizga nafaqat olam, atrofigizdagi insonlar ham boshqacha ko'rinishda boshlaydi. Avvalo, ota-ona, yaqinlaringiz qadriga yeta boshlaysiz. Sizga qilingan har bir yaxshilik aslida bir ne'mat ekani, uni vaqtda qadrlash zarurligini anglaysiz.

Bolalarim, baribir sizga havasim kelaveradi. Chunki siz yashayotgan mahalla, o'qiyotgan maktab mening bolaligim kechgan maskanlardan ming chandon go'zalroq, tengsiz! Sizning davringizda hatto bahorlar ham o'zgacha. Kuy-qo'shiqlar-u sumalaklarga boy Navro'z o'zgacha! Axir mustaqillik bolalariga havas qilmay bo'ladimi?!

Istiqlol bergan bu in'omni qadrlamoq, dorilamon kunlar shukronasini ko'ngilga jo'etmoq siz, azizlar zimmangizdagi yuksak mas'uliyatdir. «Keksalarni e'zozlash yili»da xonadonlarimiz fayzi — nuroniy bobojon-u buvijonlarimiz xizmatida bo'laylik. Ularning duolari bizni nurlil kelajak sari yo'llashi, shubhasiz!

Nodira NAZAROVA yozib oldi

Muhammad Yusuf nomini eshitmagan she'riyat ixlosmandlari bo'lmasa kerak yurtimizda. El suygan shoir tug'ilgan va kamolga yetgan Marhamat tumani-chi?! O'sha yerdagi 23-umumta'lim maktabining 8-«A» sinfida sizning tengdoshingiz Mohichehra Hoshimova tahsil oladi.

Har qanday topshiriqqa «Labbay», deb javob berib, ko'zlari porlab, hamisha jilmayib turuvchi bu o'quvchi yosh bo'lishiga

ORASTA QIZ

bilan birga, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Andijon viloyati bo'limi qoshidagi «Bobur izdoshlari» to'garagi a'zosi ham.

Mohichehra Prezidentimizning yosh avlodga yaratib berayotgan imkoniyatlaridan foydalanib, o'qib-izlanib, kelajakda jurnalist bo'lmoqchi. Uning shu kungacha erishgan yutuqlarida otanasini, ustozlarining



qaramay, qator yutuqlarga erishgan. U 2014-yili «Kamalak yulduzlari» bolalar ijodiyoti festivali hamda «Orasta qizlar» respublika ko'rik-tanlovining faol ishtirokchisidir.

Bundan tashqari maktab, tuman miqyosidagi tadbir va she'riyat kechalari uningsiz o'tmaydi. U maktabda a'lo o'qish

xizmatlari beqiyos. Ayniqsa, qo'lga ilk bor qalam tutqazgan boshlang'ich sinf o'qituvchisi Hilolaxon Nazarova haligacha o'g'itlarini undan ayamaydi.

Marhamatlik tengdoshingizga ijodiy barkamollik tilaymiz.

Muslima MIRAHMEDOVA

KEKSALAR – XONADONIMIZ USTUNLARI

Yoshi ulug' keksalar bilan hamsuhbat bo'lish, ularning hayotiy tajribasini o'rganish va duolarini olish har bir o'g'il-qiz uchun katta baxt.

Yaqinda Jizzax tumanidagi 1-umumta'lim maktabi o'quvchilarining «Gandumtosh» mahallasida istiqomat qilayotgan G'ani ota va O'g'iloy aya Alijonovalar, Norpo'lat ota Bo'ronov, Sindor ota Ismoilov kabi bir guruh keksalar bilan uchrashuv tadbiri bo'lib o'tdi.

– Shogirdlarim – shodliklarim. Ulardan shirin so'zim va maslahatlarimni ayamayman, – deydi sakson yoshni qarshilayotgan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan transport xodimi G'ani ota Alijonov.

– Maktab men uchun mo'tabar dargoh, – deydi ajoyib pedagog, yetmish yetti yoshdagi O'g'iloy aya Alijonova. – Ko'p yillar yosh avlod ta'lim-tarbiyasi yo'lida mehnat qilib, obro'-e'tibor topdim.

Hozirda ularning yetti nafar o'g'il-qizi, o'ttiz nafar nevara va yigirma nafar chevaralari bo'lib, keksalik gashtini surib kelishyapti.

Ahil oila boshlig'i G'ani otani mahalladagi katta-yu kichik birdek hurmat qiladi. To'y-hasham, turli yig'in va shu kabi tadbirlar yuzidan nur, so'zidan dur yog'ilib turuvchi otaxon ishtirokisiz o'tmaydi.

Darhaqiqat, keksalari bor yurtning ko'rki bor. Ular xonadonimiz ustunlaridir.

Feruza ABDULLAYEVA,
Jizzax viloyati

Lesson 27

Ingiliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

Navruz is the holiday of kindness and humanity.
Navro'z – mehr-u muruvvat bayrami.

Navruz is a moment of looking younger.
Navro'z – yasharish oni.

Navruz is model of renewing and good deed.
Navro'z – yangilanish va ezgulik timsoli.

Navruz is the expression of humane, love and boundless of generosity.
Navro'z – odamiylik, mehr-oqibat, cheksiz saxovatning ifodasi.

BUTTERFLY (Kapalak)

Flying all day,
Little butterfly.
I want to fly,
In the fresh sky.

Round run, round run,
But it's very far,
I haven't seen it,
It is like a star.



Every spot is grassland,
Every spot is green.
I believe you come back,
Between in the spring.

Musurmon RUSTAMOV,
poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi
181-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

GREETING (Salomlashish)

Find the suitable translation:

O'zingizni tanishtiring.
Narx-navolarni surishtiring.
Salomlashing.
Hol-ahvol so'rang.
Lutfona ibora ishlatang.
Hamsuhbatingizni ismini so'rang.

How are you?
Phrase.
How much is it?
What is your name?
Hello.
My name is Lola.

Dialogue

– Hello Nigora, Happy Navruz.
– Hello Aziza, thanks you too.
– How about your study?
– Good, we are going to celebrate the Navruz this week in our school.
– Oh! We are too. Now days are getting warm that's why we decided to celebrate Navruz outside of our school.
– This is a great idea. Good luck.
– Thanks, you too.



Nozima YO'LDOSHEVA,
O'zDJTU qoshidagi 1-akademik litsey o'quvchisi

DO YOU KNOW ABOUT NAVRUZ?

(Navro'z haqida bilasizmi?)

Do you know the answer of these questions?

Question	Answer
1. What kind of meals are cooked in Navruz?	Snowdrop, tulip, red flower and etc.
2. What kind of national games will be in Navruz?	Persian
3. What kind of tree is fasten to play swing in that day?	Sumalak, halim and etc.
4. What kind of flower holidays will be in Navruz?	Kurash, ko'pkari, string game and etc.
5. The symbol of Spring is ...	Apricot
6. From what language is taken the word «Navruz»?	Snowdrop

PUNCTUATION (Tinish belgilari)

Parrot and Parrot needs help putting the correct punctuation at the end of each sentence. Help them complete each sentence by adding a period (.), exclamation point (!), or question (?).



1. When is your birthday_____
2. I love an ice cream_____
3. My favorite subject is mother tongue_____
4. Sanjar walks to school_____
5. How far can you run_____
6. The cat is on the sofa_____
7. What is the title of the book_____
8. We had palov for lunch_____
9. May I have a drink of water_____
10. The dog jumped on the fence_____

Dinara SHAKIROVA tayyorladi

YANA KELDI NAVRO'ZI OLAM...

Tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabat asosida vujudga kelgan tarixiy bayramlardan biri Navro'zi olam ayyomdir. Uning uzoq yillik tarixga ega ekanligi qadimgi yozma manbalarda mavjud. Jumladan, ushbu bayram haqida eng to'liq ma'lumot va aniq ilmiy xulosalar, mutafakkir olim Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Qonuni Mas'udiy», «At-tafhim» asarlarida va Umar Hayyomning «Navro'znoma» risolasida yozib qoldirilgan.

Shuningdek, Alisher Navoiy o'zining «Xazoyin ul-maoniyy» asarida ham Navro'zdagi tun-kun tengligi tushunchasini quyidagicha izohlagan:

*Vasli aro, ko'rdum, teng emish bo'yi-yu sochi,
Tun-u kun teng ekan zohir o'lur bo'ldi Navro'z.*

Navro'z kunlari sumalak, yorma (go'ja), halim, ko'k somsa, ko'k chuchvara, qatlama kabi taomlar tayyorlanib, xalq o'yin-kulgi qilgan. Bolalar «Oq terakmi, ko'k terak» o'ynaganlar, polvonlar kuch sinashgan. Qizlar arg'imchoq uchishgan, o'g'il bolalar varrak uchirishgan. O'tgan bobo-buvilar xotirlangan, qabristonlar ziyorat qilingan.

Qadimda Navro'z bilan egizak holda «Boychechak» marosimi ham o'tkazib kelingan. Erta bahor kunlari bolajonlar qir-adirlardan boychechak izlab topishgan. So'ngra ular bu gulni qo'llarida tutib, hovlima-hovli bir-bir kirib chiqishgan. Har bir xonadon darvozasiga kelib, jo'raboshi:

*Boychechak aytib keldim eshigingizga,
Qo'chqordek o'g'il bersin beshigingizga, –*

deb qo'shiq boshlagan. Qolgan bolalar jo'r bo'lishib:

*Bota, bota-bo, boychechak,
Uyingizga choch tilla.
Iloyim o'g'il bersin,
O'tginasi Rahmatilla, –*



Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi «Navro'z» mahallasi faollaridan Nodira aya Isamuhammedova o'quvchilarga sumalakning tayyorlanishiga oid tavsiyalarini bermoqda.

deb aytganlar. Uy egasi ko'rinish berganida:

*Tezroq chiqing,
Tezroq chiqing,
Yog'och tovoqni to'ldirib chiqing, –*

deydilar. Xonadon sohibi bolajonlar olib kelgan boychechakni ko'rib, kelganlarga shirinlik ulashgan.

Dilorom HOTAMOVA tayyorladi



TANJSH KABUTARLAR

Yomg'irli kunlar uzayib ketdi. Bahor oyi boshlangan bo'lsa-da, qishning qahri kesilmagandi. Bog'dan eshitilib turadigan qushlarning ovozi ham siyraklashdi. Sakkizinchi qavatning oynavand ayvoni raxiga qo'ngan bir-ikki qush to'kilgan non ushloqlarini tez-tez cho'qilaydi-da, boshini yelkari orasiga olib, xomush tortadi.

yuborasan, – buvim o'tirgan joyida qo'li bilan meni yoniga imladi: – Otang yoshligida rosa kaptar boqqan.

– Bizlarga dadam bu haqda hecham gapirmagan, – buvimning gaplaridan ajablanaman.

– Nimani? – yotoqxona eshigi ochilib otamning ovozi eshitildi.

– Kaptar boqqanlarini aytaman-da,

– Jonivorlar yegulik topolmayaptimi, deyman, – buvim qushlarni uchirib yuborishdan cho'chib, ayvonga to'shalgan ko'rpachaga astagina o'tiradi. – Yomg'ir ham ezib yubordi.

Onam endi q u s h l a r g a ko'proq ushloqlar qo'yadigan bo'ldi. Barvaqt turib kuzatsam, to'rt-besh kabutar bir-birini turtib, uvoqlarni terib yeyishardi.

Ya q i n l a s h m a bolam, hurkitib

bolam, – buvim qo'llarini tizzalariga qo'yib o'midan turdi. – Oq kabutarining bo'lardi-ku, paypoqli, dermidinglar...

– Ha-a-a, rosmana paypoq kiyib olganga o'xshardi-da, – otamning chehrasi yorishib ketdi.

– Bu kaptar degani odamga o'xshab qadrlaganni bilarkan-da, bolam. Yillar o'tib, uylar ham, inlar ham buzilib ketdi. Bir kuni tongda bir to'da kabutarlar hovliga gur etib qo'ndi. Bundoq qaragam, o'sha oq kaptar bosh, qurqurlashib aylanib yuribdi. Ulg'ayib qolgan bolalarim tanish kaptarlarni ko'rib:

– Voy, haliyam borakan-ku, – dedi biri. – Esidan chiqarmabdi-ya, – dedi kichkina amaking. Otang ovoz bergandi, shartta kelib yelkasiga qo'nsa bo'ladimi. Hammamiz yosh boladek quvongandik... Mana, ayvongayam o'rmashibdi ular.

Otam oyna tomon yaqinlashgandi, kabutarlar gur etib havoga ko'tarildi. Ertasi kuni otam ikki xaltada bug'doy va tariq olib keldi-da: – Har kuni sochib turinglar, – dedi.

Onam ikkimiz barvaqt turdik. Yomg'ir shamol bilan oynaga uriladi. Donlarni sepinimiz bilan och qolgan kabutarlar ketma-ket uchib kela boshladi. Panadan turib mazza qilib

kuzatardik, hammasi deyarli bir xil ko'rinsa-da, aslo bir-biriga o'xshamasdi.

Qaragam, juda ko'p kabutarlar: o'ntadan ortiq, sanolmadim. Oqish ranglari ham qo'shilibdi. Oralaridagi qoramtir kaptar qanotlarini keng yoyib atrofdagilarni cho'qib quva boshladi. Yomg'ir tezlashdi. Yon qo'shnimiz derzasini qattiq yopgan edi, ular uchib ketdi... Biroz kutdik, qaytishmadi.

– Meniyam qo'lmandon yesin, – otam xaltachani olib tariq sepdim... va kuzatib turaverdi. Zum o'tmay qushlar dondan ancha nariga qo'na boshladi. Otam boshini parda bilan berkitgan bo'ldi. Qushlar kechagidan ham ko'payishgan, donlashga joy yetmasdi.

Kutilmaganda yomg'ir tezlashdi. To'qqizinchi qavatdagi deraza qarsillab ochildi. Kaptarlar pir etib ko'tarildi. Peshonasida xoldek sutrang belgili kabutar qanotini yoyib, deraza tarafga qattiqroq surilib qimirlamasdi.

Birozdan so'ngra kabutar donga yaqinlashdi. Orqasidan kichkinagina targ'il palapon unga ergashdi. Hayron bo'ldik. Keyin bilsak, u qanotlari orasiga palaponini yashirib olgan ekan...

Dilfuza SHOMALIKOVA



SOG'INCH

Bodom g'unchasida seni ko'rgan chog',
Tanamdan ketarkan g'ubor-u tashvish.
Yashil ko'yilagini kiya boshlar bog',
Asta xayrlashar ayozbobo – qish,
Kelaqol Navro'zim, kelaqol endi!

Ishqingda muzni ham eritgan chechak,
Seni sog'inganin aytarkan kulib.
Tezroq chorlamoq-chun tuynugin ochib,
Chumolilar shoshar, qolar yugurib,
Kelaqol Navro'zim, kelaqol endi!

Maysalar bo'y cho'zar – tabiat ko'rki,
Bolalar quvonchi – uchmoqda varrak.
Doshqozon ichida biqirlab kuylar,
Rasming chizib olgan totli sumalak,
Kelaqol Navro'zim, kelaqol endi!

Uyqudan uyg'onib, mudroq dala, qir,
Oyog'ing ostiga to'shar poyandoz.
Lolalar bag'rida allaqanday sir,
Qizargan yuzlar-la aytisharkan roz,
Kelaqol Navro'zim, kelaqol endi!

Zamin ham evrilar – kun-tun barobar,
Tenglikdan shodlanar bobo Quyosh ham.
Yulduzlar taqarlar yoqut gulchambar,
Yasharib ketadi bu ko'hna olam,
Kelaqol Navro'zim, kelaqol endi!



Mustaqillik yillarida bolalar sportini rivojlantirish, yosh avlodni har tomonlama sog'lom etib tarbiyalash bo'yicha xayrli ishlar amalga oshirildi. Bu boradagi harakat ko'lami yanada kengaytirilib, izchillik bilan davom ettirilmoqda.

PEŠKULIKLAR PEŠQADAM

Ayni kunda Buxoro viloyati, Peshku tumanidagi 29-bolalar va o'smirlar sport maktabida sportning sakkiz turi bo'yicha 1220 nafar sportchi-yoshlar shug'ullanib kelishmoqda. Shundan 542 nafari qizlar ekanligi tumanida qizlar sportini rivojlantirishga qaratilgan e'tibordan dalolatdir.

Maskanning mashg'ulotlar zali va maydonchalari hamisha sportchilar bilan gavjum. Murabbiy ko'magida yosh sportchilar keng imkoniyatlardan foydalanib viloyat, respublika miqyosidagi musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashib kelmoqda. Ayniqsa, o'tgan yilning noyabr oyida umidli yoshlardan Marjona Ro'ziyeva qizlar o'rtasida kurash bo'yicha O'zbekiston ochiq chempionatida 44 kg. vazn toifasida 3-o'rinni egallab, Osiyo chempionatiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Joriy yil yanvar oyining o'zida sport maktabi ulkan yutuqlarga erishdi. Sport maktabi murabbiylari o'rtasida o'tkazilgan bellashuvda tajribali shaxmat murabbiyi Olima To'xtayeva birinchiликni qo'lga kiritgan bo'lsa, shogirdlaridan Shahrinoz Botirova, Zulxumor Farmonova «Umid nihollari» sport musobaqasida qizlar o'rtasida viloyatda 2-o'ringa loyiq topildi. Shuningdek, mazkur musobaqada basketbolchi qizlar jamoasidan Dilnoza Odinayeva, Umida Norova, Barfiya Malikova, Sharifa To'rayeva, Yulduz Norova faxrii o'rinni egallab, respublika bosqichiga yo'llanma oldi.

Orif Ne'matov murabbiylikdagi voleybol qizlar jamoasi Buxoro viloyatida 1-o'rinni egallab, mamlakat miqyosidagi musobaqada qatnashish imkoniyatini qo'lga kiritdi.

Xurshid YUNUSOV



NAFOSAT BAHSI

Hozirda mamlakatimizda qizlarni sportga jalb qilishga katta e'tibor berilmoqda.

Respublikamizning barcha go'shalarida sport to'garaklarining tashkil etilishi, bunda nafaqat o'g'il bolalar, balki qizlarning ham muntazam ravishda badantariya bilan shug'ullanish imkoniyatini yaratmoqda.



Yaqinda poytaxtimizning Yunusobod tumanida joylashgan Respublika ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar olimpiya xazinalari sport maktabida «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya fondi tomonidan «Nafosat olami» shiori ostida sport festivali bo'lib o'tdi.

Mazkur festival doirasida sportning nafis turlaridan hisoblanmish badiiy va sport gimnastikasi, sport raqsi, suzish va sinxron suzish bo'yicha musobaqalar o'tkazildi. Bunda 300 dan ortiq o'smir yoshdagi qizlar hamda o'g'il bolalar o'zaro kurash olib bordilar.

Festival yakunida g'oliblarga «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya fondining maxsus diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

A. FAYZULLAYEV

Bugungi kunda Farg'ona viloyatida bolalar sportiga bo'lgan e'tibor va bu borada olib borilayotgan ishlar diqqatga sazovordir.

NAVBAHORNING NAVNIHOLLARI

Furqat tumanining Navbahor shaharchasida joylashgan 2-umumta'lim maktabida ham farzandlarimizni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, ularning baxtsaodati uchun keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.



Maktabda voleybol, stol tenisi, basketbol, mini futbol, futbol, qo'l to'pi va yengil atletika to'garaklari bo'lib, ularga 312 nafar o'quvchilar jalb etilgan. Shundan 175 nafari qizlardir. Bulardan 7-«A» sinf o'quvchisi Zarina Nosirjonova yengil atletikaning disk uloqtirish yo'nalishi bo'yicha o'tgan yilning sentabr oyida poytaxtda o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida 3-o'rin, sal o'tmay Olmaliq shahrida o'tkazilgan musobaqada 1-o'rinni egallab, mamlakat chempioni bo'ldi. Shu bilan birga, viloyat miqyosida o'tkazilgan «Umid nihollari» sport musobaqasida basketbol bo'yicha o'g'il bolalar jamoasi 2-, qizlar jamoasi 1-o'rinni qo'lga kiritishdi.

Musaffo osmon, yurt tinchligi, zaminimizning jannatmonand tuprog'ida o'sib-unayotgan Navbahorning navnihollari yurtga munosib farzand bo'lib, O'zbekiston bayrog'ini yuksaklarga ko'tarishi, shubhasiz.

Muhammadsodiq ALIMOV

KELING, KURASH TUSHAMIZ

Jamshid Abilxairov Angren shahridagi 19-umumta'lim maktabining 1-«A» sinf o'quvchisi. Uning sportga bo'lgan mehri bo'lakcha.

Bobosi – uzoq yillar maktabda o'quvchilarga dars bergan O'tkir Abilxairovning boksdan yaxshigina xabari borligini eshitgan jajji bolakay sport bilan shug'ullanishni maqsad qildi. Hali maktabga bormasdan, yunon-rum kurashi bilan oshno tutingan o'quvchi o'tgan bir yil davomida ko'plab yutuqlar sohibiga aylandi.

Jamshid «Sog'lom bola yili»ga bag'ishlab o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan musobaqada 26 kg. vazn toifasida 1-o'rin, BO'SM chempionatida 3-, Tursunali Anorboyev xotirasiga bag'ishlangan sport maktablari ochiq turnirida 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

Yunon-rum kurashi bo'yicha kvalifikatsiya talablarini bajarish – BO'SM birinchiligida o'z vazn toifasida 1-o'rinni egallagan sportchi joriy yilning fevral oyida «Keksalarni e'zozlash yili» munosabati bilan o'tkazilgan Toshkent viloyati chempionatida 29 kg. vazn toifasida 2-o'rin sohibi bo'ldi.

Yosh sportchining g'alabalarida murabbiy Ravshan Ikromov hamda sinf rahbari Feruza opaning hissasi katta.



YIL BOSHIM

Navro'z keldi – Yil boshim,
Asrlarga sirdoshim.
Vujudlarga yangi kuch,
Ruhim uyg' oq, ko'kka uch.
O'zgardi olam butun,
Zaminim yashnar bu kun.
Iltim berar yasharish,
Mehnatkash olar olqish.

NODIRA

«Chorlov»

«Ko'klam nafasi»

Sarvaroy
NE'MATILLAYEVA,
Surxondaryo viloyati,
Termiz shahridagi
3-umumta'lim
maktabining 3-«G» sinf
o'quvchisi

Najmiddin RUSTAMOV,
Toshkent viloyati, Chirchiq
shahridagi 26-umumta'lim
maktabining 7-«A» sinf
o'quvchisi



NAVRO'Z NIMA DEYDI?

– Bobojon, bizga ustozimiz: «Navro'z bilan bog'liq an'analar ma'nosini bilib kelinglar», deb uya vazifa berdilar. Sizdan ba'zi bir savollarni so'rasam maylimi?
– So'rang, bolam, so'rang!
– Nega Navro'zda chavandozlar ko'pkari chopishadi?

– Ko'pkariga kirgan chavandoz g'oliblikka intiladi. Yuragi zavq-shavqdan toshadi. G'olib bo'lish istagi unga jasorat, shaxdamlik beradi.
– Shirinliklar nima sababdan ulashiladi?
– Bayramda ezgu tilaklar bildirish yaxshi fazilatlardan biri. Shirinlik ulashishda esa hayotingiz, xonadoningizga shirin turmush, shirin kunlar yor bo'lsin, degan istak mujassam.
– Sumalak pishirishda qanday ezgu mazmun bor?
– Sumalak barchani bir davraga birlashtiradi. Hamjihatlikka o'rgatadi. «Mehr ko'zda», deganlariday qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug'larning bir-biriga mehri mustahkamlanadi. Bir kecha-kunduzlik pazandalik mahorati va ayni damda o'ziga yarasha mas'uliyatli mashg'ulot yosh qizlar, kelinchaklarda sabr-bardosh tuyg'ularini shakllantiradi.

Qutlibeka RAHIMBOYEVA

QOR VA YOMG'IR

(Jajji hikoya)

Bahor kelish pallasida qor va yomg'ir qisqa muddatga uchrashib qolishibdi. Shunda qor yomg'irga hasrat qila boshlabdi:

– Eh yomg'irjon, yaralibsanki, tabiat latofatidan doim bahramand bo'lib, barcha fasllarni ko'rasan. Bahorda endigina uyg'onayotgan tabiatni hayot lazzati bilan sug'orib, unga yanada jilo baxsh etish uchun rang-barang kamalak nurlarini yer yuziga sohasan. Pishib yetilayotgan mevali daraxtlarni changlardan forig' aylashing yanada go'zal. Qishda bo'lsa ba'zan mendan ham avval yetib kelib, ayozli kunlar daragini berasan. Senga judayam havasim keladi.

– Qo'ysang-chi, sen axir qish bilan betakrorsan, – debdi tomchilab yomg'ir. – Sen tabiatning dam olishiga yordam berasan. Sening xizmatning boshqa fasllardan kam emas. Yomg'irning gaplaridan ko'ngli to'lgan oppoq qor o'zini Quyoshbobo nurlariga topshiribdi.

Jannatxon O'RMONJONOVA,

Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi 19-umumta'lim maktabining o'quvchisi

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

«KAPALAK» KROSSVORDI



1. Foydali hasharot. 2. Dorivor o'simlik. 3. Bo'yni uzun botqoq qushi. 4. Soy irmog'i. 5. Suvda va quruqlikda yashovchi jonivor. 6. Olma turi. 7. Daraxt turi. 8. Ekini o'rib-yig'ib olingan maydon. 9. Subtropik daraxt. 10. Jiyda turi. 11. G'alla o'simligi.

Tuzuvchi: Fayzulla ABDULLAYEV

MUCHAL QANDAY KELIB CHIQQAN?

O'n ikki hayvon nomi bilan ataladigan vaqt birligi – muchal Sharq tafakkuri mahsulidir. Muchal bo'yicha yangi yil 21-mart – Navro'zdan boshlanadi. Muchal Osiyoning sharqiy qismida yashaydigan xalqlar, xususan, turkiylarning ham qadimgi yil hisobi bo'lgan. Mana, muchalning kelib chiqishi haqida «Devoni lug'atit turk»da 12 oy va osmondagi 12 burjga asoslanib, 12 yilga nom qo'yish lozimligi, yil hisobi shu yillarning aylanishiga qarab olinib va bu abadiy bir yodgorlik bo'lib qolishi aytiladi.

1. Sichqon.
2. Sigir.
3. Yo'lbars.
4. Quyon.
5. Baliq.
6. Ilon.
7. Ot.
8. Qo'y.
9. Maymun.
10. Tovuq.
11. It.
12. To'ng'iz.

Shahnoza MUHAMMEDOVA

«BAYRAM» SALATI

Kerakli masalliqlar:

200–300 gramm kolbasa, 100 gramm dudlangan pishloq, 5 dona tuxum, 1 banka konservalangan jo'xori, 1 quti quritilgan non, mayonez, ko'kat, salat barglari, tuz.

Tayyorlanishi: Tuxumni qaynatib, tozalab, mayda to'g'raladi. Kolbasa, pishloq, ko'katlar mayda to'rtburchak shaklida to'g'raladi, jo'xoriga mayonez qo'shib, hamma masalliqlar aralashtiriladi. Qotirilgan nonning yarmi qo'shilib, yarmi bezash uchun olib qo'yiladi. Salatning tuzi roslanib, likopchaga solinadi. So'ngra, qotirilgan nonning qolgan qismi bilan bezatiladi. Tuxum sarig'ini o'rta tishli qirg'ichda o'tkazib, salat ustiga sepladi. Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

8

16-mart 2015



Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Tahrir hay'ati:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Vahobjon RAJAPOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruza JALILOVA,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi
muharrir
Dilorom
HOTAMOVA
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'g'li

Manziliimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 48350
Buyurtma – S 2394

Muassislar:
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.